



## INSON AZIZ -XOTIRASI E'ZOZDA!

*Dadaboyeva Dildoraxon Odiljonovna*

*70-maktab ona tili adabiyoti fani o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Xotira va qadrlash tushunchasi chuqur ma'noga egadir. Ushbu kunlarda o'z Vatanini himoya qilishda jonini fido qilgan, shuningdek, To'maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro, Namoz-botir kabi qaxramonlar va asrlar davomida xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan Abdulla Qodiriy, Behbudiy, Munavvar-qori, Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi milliy qaxramonlarimizni ruhini shod etib eslash ham farz ham qarzdir. Insoniyat ikkinchi jaxon urushida qatnashgan, bu ayovsiz jangu-jadalda qaxramonlarcha halok bo'lganlar xotirasini aslo unutmaydi.*

*Inson qanchalar aziz bo'lsa, xotirasi shunchalik azizdir. Shu maqsadda men ham o'quvchilarni Ozod Sharafiddinov tug'ilib o'sgan maskani va Qo'qon "G"ofur G'ulom "adabiyot muzeylariga ijodiy uchrashuvlarga olib bordim. Bu uchrashuvni aynan xotira bayramiga rejalashtirdim sababi farzandlarimiz bu insonlarni aynan shunday kunlarda eslashlarini, yod etishlarini istadim.*

Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan e'lon qilingan 9 may – “Xotira va qadrlash kuni” mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanadi. Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. O'tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e'zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardandir.



Binobarin, Xotira, bu – unutmazlik, deganidir. Sohibqiron Amir Temur ham so'zini “Bizkim...” deya o'z Vatanini, xalqini, ajdodlarimiz hurmatini bajo etish bilan boshlagan. O'z navbatida, Mirzo Ulug'bek ham, shoir va sarkarda Bobur ham, shoirlar sultoni Alisher Navoiy ham ajdodlar ruhiga munosib, buyuk ishlarning davomchisi bo'lishga intilganlar. Shuning bilan birga, xotira tiriklik chashmasidir. Undan imon-e'tiqod bilan suv ichganlar avlodi qudratli va salohiyatli bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish tom ma'noda milliy qadriyatga aylandi.

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. O'tganlarni, ularning xayrli ishlarini, jasoratini yodga olmoq, e'zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardan, qolaversa, bu bugun tom ma'noda milliy qadriyatga aylandi.

Shu o'rinda Prezidentimiz I.A.Karimovning:

“Jafokash xalqimiz asrlar davomida ne-ne og'ir sinovlar, mashaqqatli kunlarni ko'rmadi. O'z ozodligi, erkinligi, tinch hayoti yo'lida kurashib, behisob qurbonliklar bergan ota-bobolarimiz jasorati tarixiy xotiramizdan hech qachon o'chmaydi”, - degan so'zlarini eslash o'rinlidir.

Prezidentimiz tomonidan joriy 2016 yilning “Sog'lom ona va bola yili” deb e'lon qilinishining zamirida ham xalqimizning an'analari, qadriyatlari, mehr oqibati mujassam.

Xalqimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat va himmat barcha bayramlarimiz singari “Xotira va qadrlash kuni” misolida ham yorqin namoyon bo'ladi.



Inson – hayot gultoji. Uning qadri, hurmati har doim e'zozga loyiq. Xalqimizga xos xislatlar haqida gap ketsa, albatta, qadr-qimmat, mehr-oqibat kabi fazilatlar tilga olinadi. Keksalarni ardoqlash, ko'makka muhtojlarning hurmatini joyiga qo'yish qon-qonimizga singib ketgan fazilat. Ayniqsa, o'tganlarni xotirlash, aziz otaxonu-onaxonlarning duosini olmoqlik saodati o'zgacha.

Xotira shunday ruhiy-ma'naviy qudratki, u insonning insonligini anglatuvchi, uni o'tmish va istiqbol bilan bog'lab turuvchi buyuk qadriyat, ilohiy qudratdir. Xotirlash – xalq manfaati uchun kurashgan, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lgan kishilarni eslashdir. U olamdan o'tgan ajdodlarni eslashgina emas, asrlar mobaynida Vatan uchun kurashda halok bo'lganlar xotirasini hurmatlash hamdir.

9 may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan xalqimizning ezgu fazilatlari yanada yorqin namoyon bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi dahshatlarining guvohi bo'lgan kishilar tobora kamayib bormoqda.

Yoshlikning navqiron chog'larini urush olovlarida, janggohlarda o'tkazib, bugungi tinch va osoyishta hayotimiz uchun kurashgan insonlar jasorati beqiyosdir.

Shu o'rinda Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimizga, og'ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan, mashaqqatli daqiqalarda ham o'zligini yo'qotmagan, imoni butun yurtdoshlarimizga hurmat-ehtirom ko'rsatish tom ma'noda milliy qadriyatga aylandi. Bu hol yoshlarni yurtparvarlik, mehnatsevarlik,

ajdodlarining eng yaxshi an'analaridan faxrlanish, ularga munosib vorislar bo'lish ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarining birida shunday degan edilar: “Tarixiy xotira – bu avvalo, hayot mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorisiylik tuyg'usini anglash demakdir”.

Xotirani asrash, xotirani ehtiyot qilish – bu bizning o'zimiz va avlodlar oldidagi axloqiy burchimizdir. Xotira – bizning boyligimizdir.

Kechagi kun saboqlarini, xalqimiz kelajagi yo'lida jonini fido qilgan insonlarni xotirlash bugungi kunimizni qadrlashga o'rgatadi. Xotira bu – tarixdir. U kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Shu bois, inson o'z xotira boyliklarini qadrlaydi.

Bugun nishonlayotgan bayramimiz shunday bir kunki, u shu yurtda yashayotgan har qaysi oila, har qaysi xonadon uchun bevosita daxldor bo'lgan, ularning hayotida qandaydir chuqur iz qoldirgan tarixiy sanadir.

Ayni shu kunda men el-yurtimiz bilan birga bo'lib, shu kunning ham xursandchiligini, ham iztirobini urush qatnashchilari, muhtaram faxriylarimiz bilan baham ko'rib, yana bir bor butun xalqimizni ana shu tarixiy sana bilan tabriklashni o'zimning muqaddas burchim deb bilaman.

Barcha fahriylarimizni, aziz yurtdoshlarimizni Xotira va qadrlash kuni bilan tabriklayman!

Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani 70-maktabida ona tili fanidan dars beraman. Maktab rahbari O.Sherg'oziyev tashabbuslari bilan ijodiy uchrashuvga otlandik. Inson qanchalar aziz bo'lsa, xotirasi shunchalik azizdir. Shu maqsadda men ham o'quvchilarni Ozod Sharafiddinov tug'ilib o'sgan maskani va Qo'qon "G"ofur G'ulom "adabiyot muzeylariga ijodiy uchrashuvlarga olib bordim.





Bu uchrashuvni aynan xotira bayramiga rejalashtirdim sababi farzandlarimiz bu insonlarni aynan shunday kunlarda eslashlarini, yod etishlarini istadim. Dastlab O'zbekiston qahramoni Ozod Sharafiddinov uylariga tashrif buyurdik u yerda bizni jiyanlari, oilalari bilan Esonov Inomjon Davronovich kutib olib barcha bizga kerakli ma'lumotlarni aytib o'tdilar. Eng muhimi o'quvchilarni hozirgi kunga shukrona keltirib yashashliklarini juda chiroyli qilib tushuntirdilar.

Biz yana Qo'qon G'ofur G'ulom adabiyot muzeyiga ham tashrif buyurdik. Bu yerda ham ajoyib adabiyot darg'alari va o'sha davr hayotini yaqqol ko'rdik.

Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarining birida shunday degan edilar: “Tarixiy xotira – bu avvalo, hayot mazmunini, avlodlar o'rtasidagi vorisiylik tuyg'usini anglash demakdir”.

Xotirani asrash, xotirani ehtiyot qilish – bu bizning o'zimiz va avlodlar oldidagi axloqiy burchimizdir. Xotira – bizning boyligimizdir.